

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI OLIMLARINING JAHON SIVILIZATSIYASIGA
QO'SHGAN XISSASI: O'TMISH VA HOZIR**

Qambarova Dilshoda Ravshanovna

Oriental universiteti

tarix yo'nalishi magistri

Annotatsiya: *Mamlakatimizda ajdodlar merosidagi olam va odam, tabiat, ijtimoiy hayot, shaxs ma'naviyati, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalash, ajdodlar qoldirgan merosimiz va bugungi ilm-fan borasidagi amalga oshirilgan ijodiy-ilmiy ishlarning tarix fanini yanada mukammal o'rganishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *tarix olimlari, ilmiy izlanishlar, ilmiy-nazariy qarashlar, ilmiy meros, tarixiy asarlar.*

Аннотация: *В нашей стране исследование взглядов на мироздание и человека, природу, общественную жизнь, личную духовность, воспитание и воспитание в наследии наших предков, воспитание подрастающего поколения как достойных наследников их идей в соответствии с духом времени, наследие, оставленное нашими предками, и сегодняшняя наука служит для более совершенного изучения истории научно-творческой деятельности.*

Ключевые слова: *ученые-историки, научное исследование, научно-теоретические взгляды, научное наследие, исторические труды.*

Annotation: *The study of views on the world and man, nature, social life, spirituality of the individual, education and upbringing in the heritage of ancestors in our country, educating the younger generation as worthy heirs of their ideas in accordance with the spirit of the times, the legacy left by our ancestors, and today's science . Serves for a better understanding of the history of scientific and creative work in the field of science.*

Key words: *scientists-historians, scientific research, scientific and theoretical views, scientific heritage, historical works.*

Mamlakatimizda ajdodlar merosidagi olam va odam, tabiat, ijtimoiy hayot, shaxs ma'naviyati, ta'lim va tarbiyaga oid qarashlarni tadqiq etish, ularning zamon ruhiga mos g'oyalaridan yosh avlodni munosib vorislar qilib tarbiyalashda foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy

ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"⁵⁵. Shu jihatdan olganda, Xorazm Ma'mun akademiyasi allomalarining umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllangan falsafiy, tabiiy-ilmiy qarashlarining inson kamoloti uchun konstruktiv ahamiyatga ega bo'lgan ekzistentsial g'oyalarni har tomonlama ilmiy-nazariy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Ma'lumki, uzoq o'tmishga ega bo'lgan O'rta Osiyo xalqlari taraqqiyoti tarixi o'z boshidan turli voqealarni, yuksalish va orqaga ketish davrlarini boshdan kechirdi. Shubhasiz, bu davrlarning barchasi tarixda o'zining ma'lum izini qoldirdi. Xususan ilm-fan madaniyatimiz taraqqiyotida IX—XII asrlar davrining o'рни beqiyosdir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shax Ma'mun ibn Muhammad X asr oxirlarida janubiy va shimoliy qismlarga bo'lingan Xorazmni yagona bir markazga birlashtirdi. Ma'mun ayniqsa poytaxt Gurganchni Sharqning eng yirik ilmiy-madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Ma'mun Gurganchda «Baytul xikma» (Donishmandlar uyini) tashkil qildi. U Ma'mun akademiyasi deb ham ataldi. Bu maskanda ulug' mutafakkirlar Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ibn al-Hammar, Abu Saxl Masixiy, Ibn Irok, Ahmad Farg'oniylar ijod qildilar. Shuningdek ular orasida Sharqning ko'pgina mamlakatlaridan kelgan ulug' allomalar ham bor edi.

Xorazm Ma'mun Akademiyasi asosini quyidagi olimlar tashkil etgan: Abu Nasr Mansur ibn Ali ibn Iroq al Ja'diy (X asr. 1034), Abulxayr ibn Hammor (941- 1048), Abu Saxl Iso ibn Yah'yo al Masihiy al Jurjoniy (970-1011), Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al Beruniy, Abu Ali al Husayn ibn Abdulloh ibn Sino, Abu Ahmad ibn Muhammad ibn Ya'qub ibn Miskavayh (1030 y. v. e.), Abu Mansur Abdulmalik ibn Muhammad ibn Ismoil as Saolibiy an Naysaburiy (961-1038), Ahmad ibn Muhammad as Sahriy (1015 y. v. e.), Abu Ali al Hasan ibn Horis al Hububiy al Xorazmiy (X-XI asrlar), Abu Abdulloh Muhammad ibn Homid al Xorazmiy (X-XI asrlar) va boshqalar⁵⁶.

Abu Abdullo Muhammad Ibn Muso al - Xorazmiy. (783-850yy) Buyuk mutafakkir va olim al-Xorazmiyning arifmetika va algebraga doir «Kitob al-jabr val mukobala» (To'ldirish va qarama-qarshi qo'yish haqida kitob) asari matematika fanida yangi davrni boshlab beribgina qolmay, balki uning keyingi asrlardagi taraqqiyotiga ham katta asos bo'ldi. «Hind arifmetikasi haqida kitob» asari tufayli avval Sharq xalqlari, so'ngra esa Yevropa xalqlari ham Qadimiy Hindistonning katta yutug'i-o'nli pozitsiyasi hisoblash sistemasi bilan tanishdilar. (XII asrda lotin tiliga o'g'irilgan). Al-Xorazmiyning «Kitob surat al-arz» (yerning surati) asari geografiyaga, «Astronomik jadvallari» astronomiyaga oid bo'lib, ular muallifning nomini jahonga yoydi. Shuningdek, «Quyosh soatlari to'g'risida risola», «Tarix risolasi», «Usturlab haqida risola», «Musiqqa risolasi» singari ajoyib asarlari olimga katta shuxrat keltirdi, uning nomini abadiylashtirdi. Al-Xorazmiyning «Al-jabr val muqobala» asari keyinchalik Yevropada «Algebra» deb yuritila boshlandi. Uning astronomiyaga oid asari esa faqat Sharqda emas, balki G'arbda ham asronomiya fani rivojida katta rol o'ynadi.

⁵⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//“Xalq so'zi”, 2020 yil. 30 dekabr.

⁵⁶ Ad. Abu Rayhon Beruniy, Qadimgi xalklardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, 1j., T., 1968; Sadullaev A., Xorazm Ma'mun akademiyasi, Xiva, 2000; Sadullaev A., Sotliqov A., Xorazm Ma'mun akademiyasining tarixiy iddizlari, Urganch, 2003.

Abul Abbos Ahmad ibn Muhammad Al-Farg'oniyy. Al-Farg'oniyyning tarjimai holiga doir ma'lumotlar tarixda kam saqlanib qolgan. 861 yilda vafot etgan. Astronomiya, matematika, geodeziya, gidrologiya fanlarining bilimdoni Bag'dod va Damashqdagi rasadxona qurilishlarida faol qatnashdi va u yerda Ptolemeyning «Yulduzlar jadvalidagi» ma'lumotlarni tekshirish ishlarini olib bordi. Al-Farg'oniyy astronomiyaga oid «Astronomiya negizlari» asarida astronomiyaga oid bilimlarni tartibga soldi, o'zining yangi natijalari bilan boyitdi. O'sha davr an'anasiga muvofiq mamlakatlarni yetti iqlimga bo'lib urgandi. Kuyosh soatlarini bayonini berdi, astronomik asboblari yaratdi. Farg'oniyyning bu asari N.Kopernik davriga qadar Yevropada astronomiya fanidan asosiy qo'llanma sifatida foydalanildi.

Abu Nasr al-Forobiy (873-950 yy). O'trorda tug'ilgan, boshlangich ma'lumotni Shosh, Buxoro, Samarqandda olgan so'ng Bag'dodda uzoq yashab, zamonasining olimlari bilan ilmiy muloqotda bo'lgan. Ilmning turli sohalariga oid 160 dan ortiq risolalar yozgan. Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan «Musiqa xaqida katta kitob» nomli mashhur asari bu soha tarixiga bag'ishlangan eng dastlabki tarixiy manbalardan biridir. U serqirra, qomusiy olimdir.

Abu Rayxon Beruniy (973-1048 yy). Xorazmda tavallud topgan bu mutafakkir, serqirra olim astronomiya, tarix, tibbiyot, riyoziyot, jug'rofiya, geodeziya, meteorologiya, etnografiya, falsafa, filologiyaga oid 150 ga yaqin asarlar yaratgan. Bu asarlar Beruniy nomini jahonga taratdi. Shuningdek, uning hikoyalar, she'rlar bitganligi xam ma'lum. Beruniy o'rta asrda birinchi bo'lib globus yaratdi. U arab, fors, hind turkiy tillarni mukammal bilgan. Uning «Farmokanaziya», «Geodeziya», «Hindiston», «Minerologiya», «Ma'sud qonuni», «qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarlari o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Maxmud G'aznaviy saroyda ham xizmatda bo'lgan. U Ibn Sino bilan ham zamondosh edi.

Abu Ali Ibn Sino (980-1037 yil) U falsafa, mantiq ruxshunoslik, adabiyotshunoslik, she'riyat, musiqa, geologiya, minerologiya, fizika, matematika, tibbiyot, astronomiyaga oid yuzlab asarlar yaratdi. Abu Alining ilmiy qiziqishlari doirasi shu qadar keng bo'lganki, uning 40 dan ziyod tibbiyotga, 30 ga yaqin astronomiya va tabiatshunoslik fanlariga, 185 ta falsafa, mantiq va ilohiyotga ba'ishlangan asarlar yaratgani ma'lum.

XIX boshlarida kelib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, Abu Rayxon Beruniy nomli davlat mukofoti sovrindori Asomiddin O'rinboevning ilmiy merosi kirib bormagan o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak. Abu Ali ibn Sinoning "Qonun fit-tib"- siz bilan biz "Tib qonunlari" nomi bilan ataydigan, butun dunyo meditsina olami qo'llanma sifatida foydalanadigan, O'zbekiston ilm-fanining tashrif qog'ozi hisoblangan bu noyob asarni arab tilidan o'zbek tiliga tarjima qilinishida A.O'rinboevning xizmatlari beqiyosdir. "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobi 1954 yilda⁵⁷, ikkinchi kitobi 1956

⁵⁷ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'ZRFA nashriyoti.1954-4 p.1.(A.O'rinboev, A.Murodov) , 2-nashr, Toshkent.Fan, 1983.

yilda⁵⁸, uchinchi⁵⁹ va to'rtinchi kitobi⁶⁰ 1960 yillarda tarjima qilinib muommalaga kiritilgan. Bu ilmiy tadqiqot ishi ustoz Asomiddin O'rinboevning 156 ta yirik ilmiy tadqiqot ishlarining "dengizda bir tomchi"sidir. Asomiddin O'rinboev 1929 yilning 15-mayida Toshkentda oddiy ishchi oilasida tavallud topgan bo'lsada uning ta'lim-tarbiya muhitining ta'siri natijasi o'laroq hayotining asosiy qismini ilm-fan bilan bog'ladi. Asomiddin O'rinboev ilmiy faoliyatini 1953 yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi sharqshunoslik institutiga ishga kirganidan so'ng boshlagan va umrining so'ngi daqiqasigacha ilm-fan uchun xizmat qildi. Mehnati davomida sharq muarrihlarining qo'lyozma asarlarini, sharqshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozma xujjatlarni arab, fors, eron tillaridan o'zbek tillariga tarjima qilish va muomalaga kiritish ishlari bilan, qo'lyozma xujjatlarni tasniflash kabi ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. A.O'rinboev ilmiy merosini yo'nalishga bo'lish mumkin: 1) Sharq xalqlari yozma merosini manbashunosligini o'rganish; 2) ilmiy tasniflar va sharq qo'lyozmalarini kataloglarini tuzish; 3) rasmiy xujjatlar ustida ishlash.

1953 yilda sharqshunoslik institutiga kelganida A.O'rinboev tarixchi Muxammad Solih xo'janing "Tarixi jadidiy Toshkand" asarini o'rganishni boshlagan. Bu asarda Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bostirib kelish voqealari keng yoritilgan edi. O'sha vaqtdagi siyosiy vaziyat yosh olimning tadqiqotlarini keng jamoatchilikka e'lon qilishga to'sqinlik qilar edi. Muxammad Solih xo'janing "Tarixi jadidiy Toshkand" asari tarjima qilingan holda nashr qilinguncha oz emas, naq 30 yil qolib ketdi. 1983 yilda Toshkent shahrining 2000 ming yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazilishi munosabati bilan Toshkent shahrining tarixiga oid kitob nashr etilishi kerak bo'lib qoladi va shu voqea sababligina A.O'rinboevning ilk tadqiqot ishi "Toshkent Muxammad Solix tavsifida" deb nomlangan kichik bir kitob shaklida nashr etildi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Asomiddin O'rinboev o'zidan O'zbekiston tarixi va manbashunosligi uchun juda katta boy ilmiy- meros qoldirdi. Uning ilmiy tadqiqotlaridan Qo'qon xonligi tarixiga ba ishlangan "Neizvestnaya rukopis po istorii Kokandskogo xanstva", Alisher Navoiy va Abduraxmon Jomiyning maktublari bo'yicha "Majmua-i murosalat" asari, Mirza Muxammad Xaydarning "Tarixi Rashidiy" juda mashhur hisoblanadi, bu ishlardan bugungi kungacha minglab tadqiqotchilar o'z faoliyatlarida zaruriy manba sifatida foydalanib kelmoqdalar.

⁵⁸ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 2-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1956- 5 p.1.(A.O'rinboev, A.Murodov) ,2-nashr. Toshkent.Fan. 1982.

⁵⁹ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1960-4 p.1.(A.O'rinboev, A.Murodov) , Toshkent, 2004.

⁶⁰ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 4-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1980 -33 p.1.(A.O'rinboev, A.Raslov) , 2-nashr: Toshkent. Fan. 1980.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi//“Xalq so‘zi”, 2020 yil. 30 dekabr.
2. Ad. Abu Rayhon Beruniy, Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Tanlangan asarlar, 1j., T., 1968; Sadullaev A., Xorazm Ma‘mun akademiyasi, Xiva, 2000; Sadullaev A., Sotliqov A., Xorazm Ma‘mun akademiyasining tarixiy iddizlari, Urganch, 2003.
3. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1954-4 p.l.(A.O'rinboev, A.Murodov), 2-nashr, Toshkent.Fan, 1983.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 2-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1956- 5 p.l.(A.O'rinboev, A.Murodov), 2-nashr. Toshkent. Fan. 1982.
5. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 3-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1960-4 p.l.(A.O'rinboev, A.Murodov), Toshkent, 2004.
6. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 4-kitob. O'zbek tiliga ilmiy-izohli tarjima (arab tilidan). O'zRFA nashriyoti.1980 -33 p.l.(A.O'rinboev, A.Raslov), 2-nashr: Toshkent. Fan. 1980.